

O'QUVCHILARDA VATANPARVARLIK TARBIYASINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI

Raxmonov Azamat Ruzvonovich
TVChDPI
"Umumiy pedagogika"
kafedrasiga
katta o'qituvchisi
Tel: +998(94)5145579,
[*a.raxmonov@cspi.uz*](mailto:a.raxmonov@cspi.uz)

Isamiddinova Shaxlo Bekmurod qizi
TVCHDPU pedagogika fakul'teti
MMEJ-22/2 gurux talabasi

Azimova Maxzuna Aziz qizi
TVCHDPU pedagogika fakul'teti
MMEJ-22/2 gurux talabasi

Annotatsiya: Mamlakatimizda oila faoliyatini tashkil etish va unda farzandlarni Vatanparvarlik ruhida tarbiyalash pedagogik muhim masala hisoblanmoqda.

Tayanch iboralar: oila tarbiyasi, oila-amaliy, vatanparvarlik va fuqarolik qadriyatlarini singdirish, fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirishimiz, bolalarni vatanparvarlik ruxida tarbiyalash.

O'zbekiston Respublikasida jamiyatimizning yangi ehtiyojlariga asosan, insoniyatning turmush tarzida uchrayotgan dolzarb muammolari tufayli, o'quvchilar ma'naviy dunyosini, vatanparvarlik va fuqarolik qadriyatlarini singdirish uchun ta'lim tizimida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish va o'tkazish uchun samarali usullarni ishlab chiqishni talab qiladi. O'quvchilarning his-tuyg'ulari va e'tiqodlarini tarbiyalash va rivojlantirishda ular tomonidan mustaqil ravishda bilim olish muhim ahamiyatga ega. Qo'shimcha adabiyotlarni o'qish, badiiy jurnallarini ko'rib chiqish, oila a'zolari, tanishlar bilan suhbathlashish, mahorat darslari, tarbiyaviy soatlari,

ijodiy topshiriqlar va izlanishlar uchun tavsiyalar va shu kabi materiallarni mustaqil ravishda ishlashga o'rgatadi. To'plangan ilmiy ma'lumotlar asosida quyidagi tadqiqot ishi, ya'ni CHDPUning maktab menejmenti 20-1 gurux talabalari tomonidan pedagogika fakul'tetining Chirchiq shaxriga qarashli 8-sonli makatabida tashkil etilgan "Maktab laboratoriyasi"da olib borilgan tadqiqoti "**Mening oilamni shaxarni rivojlantirishga qo'shgan hissasi**" mavzusidagi ilmiy tadqiqot ishida shahrimizning o'tmishi va bugungi kuni, oila misolida tasvirlangan. Ilmiy tadqiqot ishida, turli xil rasmlar, ayrim manbaalar talabalarimiz tomonidan o'quv va maktabdan tashqari mashg'ulotlarda foydalanishga tavsiya etilgan. Maqsadli tizimli ishlar shuni ko'rsatdiki, fuqarolik-vatanparvarlik tuyg'ularini tarbiyalash, o'quvchilar uchun shahar, hudud, mamlakat tarixi bilan tanishish uchun erishilgan yutuqlari asosan oxirgi yillari ilmiy tamoillar asosida o'rganib chiqilgan . O'z navbatida Davlatimiz raxbari Sh.M.Mirziyoyevning ¹"**Xalqimiz azaldan oilani muqaddas bilib, uni doimo asrab-avaylab keladi. Oila qanchalik mustaxkam bo'lsa, jamiyat ham shunchalik barqaror bo'ladi.**" Mazkur fikr va muloxazaga tayanadigan bo'lsak oilada har tomonlama tarbiyani amalga oshirishi o'rnida bolani oziga hos qiziqishlari asosida yo'naltirish xam maqsadga muvofiq hisoblanadi. O'z o'rnida xalqimiz tomonidan aytilgan maqolni ham qayd etib o'tsak ayni mudd Dao hisoblanadi, ya'ni "Bir bolaga yetti mahalla ota-onan". Aynan bu hususida Sharq mutafakkirlarining g'oyaviy jihatdan birlashtirgan asosi shu bo'lganki, ular shaxs tarbiyasi va kamolotida oilaning, oilaviy vatanparvarlik tarbiyasining rolini yuqori qo'yishgan, ayniqsa, shaxsning aqliy va axloqiy kamolotida oilaning o'rnini, ota-onan va yaqin kishilarning yo'naltiruvchi va tarbiyalovchi vazifalariga alohida e'tibor bergenlar. Ular faqat oiladagina rivojlanishi mumkin bo'lgan sifatlar – halollik, poklik, mardlik, mehribonlik, haqgo'ylik kabi qator fazilatlarni barcha sifatlardan yuqori qo'yishlari bilan birga insoniy munosabatlarda nomoyon bo'lgan yuksak

¹ Sh.M.Mirziyoyev "Yangi O'zbekiston strategiyasi" toshkent-2021, 6.07.2021y 112b

fazilatlar, avvalo, ota-onadan bolaga o'tishi va ularning jamiyat taraqqiyotiga ijobiy ta'siri kabi qimmatli fikrlar va bu boradagi amaliy ko'rsatmalarni o'z falsafiy-axloqiy, sotsiologik va psixologik qarashlarida ifodalab bergenlar. Bolalarga bugungi kunda zamonning talabiga ko'ra o'tmish mutafakkirlarimizning pandnomalari va atrof kishilarning har tomondan maslaxatlari ham unga taxsinli yo'nalish sifatida ko'rindi. Shu singari maktab faoliyatini amalga oshirilishida o'quvchilarga qiziqarli mahorat darslari, ekskursiyalar va darsdan tashqari mashg'ulotlarda olgan bilimlarini o'z yashash hududlarida tatbiq etishlariga zamin yaratildi. Asosan atrof-tabiatni asrash va himoya qilishlari kerakligiga ishonch xosil qildirildi. Shunda o'zлari yashayotgan shaharni, viloyatlarini va shu singari butun mamlakatni aholisi yaxshiroq yashashini tushundilar. Biz vatanparvarlik va aniq fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirishimiz uchun talaba-o'quvchilar bilan birgalikda ishlashimiz kerakligi zamonning extiyojiga aylanmoqda. Ayniqsa ota-onalar, o'qituvchilar, jamoat tashkilotlari o'zsaro haamkorligi maqsadli o'rnatilishi kerakligi xam aniqlandi. Zero bu jarayon murakkab emas albatta, uni amalga oshirish uchun o'quvchilarga o'quv faoliyatining sub'ekti bo'lgan bilimga asoslangan yondashuvni emas, balki amaliy tajriba dars tizimini faoliyatga yondashuvini qo'llash yaxshiroq ekanligi aniqlandi. Bu esa asosan o'quvchilarda mustaqil ta'lim harakatlarining barcha turlarini shakllantirishga va rivojlantirishga yordam beradi. Kognitiv, tashkilotchilik, kommunikativ, va shaxsiy qobiliyatni barqarorligini ta'minlashga hizmat qiladi.

Mazkur tajribani amalga oshirishda mактабning boshlang'ich sinf o'quvchilarida vatanparvarlik ta'limining individual ta'lim shakllarini ko'rib chiqildi, bolaning individual faoliyatini tashkil etishda shu singari boshqa fanlarga ko'ra matematik hisoblashni amalga oshirayotgani ko'zga tashlandi. Shaxsiy individual shakllarda vatanparvarlik tarbiyasini tashkil etish, bolalar tomonidan shaxsiy fazilatlar sifatida olingan axloqiy qadriyatlarni mustahkamlashga yordam berdi. U belgilangan me'yor va qoidalarni anglatdi, natijada ular asta-sekin o'z

qarashlari va e'tiqodlarini namoyon etdilar. Bundan kelib chiqib kelajakda bolaning xatti-harakati, buning natijasi chuqur tushuniladi va mexanik bo'ysunish bilan hech qanday aloqasi yo'q, faqat tashqi sharoitlar va talablar bilan majburlanadi. Bundan tashqari, individual shakllarda o'quvchilarning oilalari bilan yaqin ishlarni amalga oshirdilar. Bunda muayyan yosh bosqichida kelib chiqib yosh oila o'rganildi. O'qituvchi ota-onalar tomonidan bolalarni vatanparvarlik ruxida tarbiyalash jarayoniga jalg qilinadi. Bu vatanparvarlik ta'limining muhim shakli (individual va guruhlashtirilgan)da amalaga oshirildi. Yosh o'quvchilarning o'yinlari kattalar xatti-harakatlariga taqlid qilishga qaratilgan. Bir tomonidan, bolaning biologik tabiat o'yinda namoyon bo'lsa, boshqa tomondan-ijtimoiy moslashishga tayyorlikni ko'rsatdi. O'yinda kattalar hayotidan xulq-atvor normalari asosida o'qitiladi, bolaning ko'nikmalari qadriyatlar ruxida rivojlantiriladi. Bu to'g'risida jaxon olimlarining ilmiy tadqiqotlari o'rganilganda rus pedagog-psixologi D.B.Elkonin, "o'yinda bolalar faoliyatining yuqori shakllari, insoniy munosabatlar qoidalari rivojlangan dunyoga kiradi" bundan aniq ma'lumot o'zin axloqiy manba bo'lib qolishini asoslaydi. Shuning uchun boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'yinlarni ko'proq qo'llash, balki ta'linda xam, mashg'ulotlarda xam qo'llash maqsadga muvofiq. Maktab o'quvchilarida vatanparvarlik tarbiyasining guruhiy shakllarini ko'rib chiqilganda: guruhli ta'lim shakllari 5-7-25 nafarli guruhlarda qo'llash imkoniyatini yaratadi. Vatanparvarlik tarbiyasini oila hamkorligida olib borishning guruh shakllariga urush va mehnat faxriylari bilan uchrashuvlar, suhbatlar, viktorinalar, jamoaviy ijodiy ishlar, ko'rgazmalar, ekskursiyalar uyushtirish mumkin. Bu esa oilada farzandni o'z tug'ilib o'sayotgan maskaniga nisbatan hurmat va e'tiborni barqarorligini ta'minlashga yordam beradi. Ota-onaga, oila a'zolariga nisbatan hurmat-e'tiborni yanada oshiradi, ular bilan faxrlanish tuyg'usini vujudga keltiradi.

Buning zamirida oila va maktab hamkorligida bolada Vatanparvarlik tuyg'usini har tomonlama shakllantirish asosi ta'limning individual va guruxli shakllarida amalgalashadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sh.M.Mirziyoyev "Oliy majlisga murojatnomasi hamda O'zbekiston yoshlar forumida so'zlagan nutqidan ixtiboslar" 74-b.Toshkent-2021y
2. Sh.M.Mirziyoyev "Yangi O'zbekiston strategiyasi" Toshkent-2021, 6.07.2021y 128b.
3. Mavlonova R, Vohidova N, Raxmonqulova I, "Pedagogika nazariyasi va tarixi(darslik)-T: "Fan va texnologiya nashriyoti 2010-yil 410-b
4. Toxtaxodjayeva M.X, Nishonova S, Hasanboyev J, Usmonnboyeva M, Madiyarova S, Qoldibekova A, Nishonova N, Saidahmedov N. Pedagogika(pedagogika nazariyasi va tarixi): darslik-T.,Fan va texnologiya nashriyoti 2010yil 317 bet